

Tillar



“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini mudiri,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Kilicheva Feruza Beshimovna

Tel.: +99871-237-19-43

Email: f.kilicheva@tiame.uz

“O‘zbek tili va chet tillar” kafedrasini institutda faoliyat ko‘rsatib kelgan “O‘zbek tili”, “Rus tili” va “Chet tili” kafedralarining qo‘shilishi natijasida 2004 yilning 16 sentyabrida tashkil etildi va professor M.A.Baturova kafedra mudiri etib tayinlandi. 2014 yilning 2 yanvaridan kafedra tarkibidagi ingliz tili fani alohida ajratilib, “Ingliz tili” kafedrasini tashkil topdi. “O‘zbek tili va chet tillar” kafedrasini mudiri lavozimiga katta o‘qituvchi I.V.Allenova tayinlandi. Kafedraga 2015 yil aprel oyidan boshlab pedagogika fanlari nomzodi, dotsent F.B.Kilicheva mudir etib tayinlandi va hozirgi kungacha boshqarib kelmoqda. Kafedra 2016 yil apreldan “Tillar” kafedrasini deb yuritila boshladi. Hozirgi “Tillar” kafedrasini asosini tashkil qiluvchi “Rus tili” kafedrasini asosiy tashkilotchilaridan biri va rahbari bo‘lgan filologiya fanlari nomzodi, professor M.A.Baturova hisoblanadi. U 1969-2014 yillar davomida kafedraning rivojlanishiga ko‘p yillik mehnatini sarflab, kafedra professor-o‘qituvchilari va yordamchi xodimlar tarkibini shakllantirgan va ularning samarali faoliyat olib borishlarini yo‘lga qo‘ygan. Uning rahbarligida va samarali mehnati tufayli ko‘plab ilmiy, o‘quv va amaliy ishlar amalga oshirilgan. Chunonchi, bir nechta monografiya, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari va o‘quv uslubiy ishlar tayyorlanib chop etilgan. Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tili – davlat tiliga e‘tibor kuchaytirilganligi sababli texnika oliy o‘quv yurtlarida ham “O‘zbek tili” kafedralari tashkil etila boshladi. Shu jumladan, 1989 yil institutda “O‘zbek tili” kafedrasini tashkil etildi. 1989 yildan 1996 yilgacha kafedrani tashkil etishda va boshqarishda filologiya fanlari doktori, professor X.Qudratillaev samarali mehnat qilgan. 1996 yildan 2004 yilgacha “O‘zbek tili” kafedrasiga filologiya fanlari nomzodi, dotsent K.N.Raximova rahbarlik qilgan. Hozirgi kunda kafedraning professor-o‘qituvchilaridan prof.M.A.Baturova, dotsent F.B.Kilicheva, katta o‘qituvchilar I.V.Allenova, U.T.Tasheva, E.Q.Yusupovlar talabalarning rus tilida muloqot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda, tilni chuqur va puxta egallashlarida jonbozlik qilmoqdalar. Kafedraning tajribali dotsenti K.N.Raximova rus guruhlaridagi talabalarning o‘zbek tili – davlat tilini puxta egallashlarida, to‘g‘ri, ifodali so‘zlash, til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish, ish yuritish qog‘ozlarini savodli yoza olish qobiliyatlarini shakllantirishda, muomala va nutq madaniyatini egallashlarida samarali mehnat qilishmoqda. LOGO yo‘nalishi bo‘yicha nemis tili fanidan kafedraning o‘qituvchilar B.A.Bobojonov va Sh.M.Yaqubovalar talabalarga nemis tilini puxta va chuqur egallashlarida faollik bilan ish olib borishmoqdalar. Fransuz tili fanidan o‘qituvchilar M.T.Saipova, T.M.Turmanovlar axborot va pedagogik texnologiyalar asosida talabalarga tilni chuqur va puxta o‘rgatishga harakat qilishmoqda. Kafedraning barcha fan o‘qituvchilari o‘z fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni zamonaviy talab darajasidagi o‘qitishning

texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini olib borishmoqda.

Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti O'qitiladigan fanlar Ilmiy ishlar Tadqiqotchilar
Hamkorlar Kafedra xodimlari To'garaklar Dars jadvali Aloqalar